

“BILGAMISH” – ENG QADIMGI TURKIY EPOS

Mahmadiyor ASADOV*

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyodagi eng qadimgi eposlardan biri – “Bilgamish” dostoni va uning kelib chiqishi haqida ilmiy bahslar yoritiladi. Maqolada dostonning faqatgina Mesopotamiya madaniyatiga mansub ekani haqidagi an’anaviy qarashlarni shubha ostiga olinib, uning turkiy xalqlar tarixiga aloqador ekanligini asoslovchi dalillarga tayanilgan. Shumerlarning etnik kelib chiqishi, ularning tili va madaniyati turkiy xalqlar bilan bog‘liq ekani haqidagi muhim qaydlar keltiriladi. Shuningdek, dostonning nomi, syujet qurilishi va epik an’analari turkiy eposlarga xos jihatlar bilan taqqoslanadi. Tadqiqotda fonetik, semantik va madaniy o‘xshashliklar orqali “Bilgamish” dostonining turkiy ildizlarga ega bo‘lishi ehtimoli ilmiy asoslar bilan mustahkamlanadi. Ushbu yondashuv orqali turkiy adabiy va madaniy merosning qadimiyligini qayta ko‘rib chiqish uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi.

Kalit So‘zlar: *Bilgamish, Shumer, Turkiy, Epos, Mif.*

“Bilgamish” – the Oldest Turkic Epic

Abstract: This article explores one of the world's oldest epics, the Epic of Bilgamish, and the scholarly debates regarding its origins. Traditional views that associate the epic exclusively with Mesopotamian culture are questioned, and evidence supporting its connection to Turkic history is presented. The article highlights important notes on the ethnic origins of the Sumerians, their language, and their culture, linking them to Turkic peoples. Additionally, the epic's name, plot structure, and epic traditions are compared with characteristics typical of Turkic epics. Through phonetic, semantic, and cultural similarities, the study provides a solid scholarly foundation for the possibility that the Epic of Bilgamish has Turkic roots. This perspective is emphasized as an important step in reassessing the antiquity of Turkic literary and cultural heritage.

Keywords: *Bilgamish, Sumerian, Turkic, Epic, Myth.*

Kirish

Yaqin o‘tmishgacha qadimgi yunon-rim adabiyoti bashariyat tamaddunining o‘chog‘i sifatida qarab kelinar va adabiyot mana shu madaniyatga suyanib kelar edi. O‘tgan asrda tarixchilar, arxeologlar sa’y-harakati bilan arxeologik qazishmalar natijasida ko‘plab topilmalar qo‘lga kiritildiki, bu bebaho boylik shumer tarixi, madaniyati va adabiyoti haqida zamonaviy ilm-fanda yangi qarashlarni yuzaga keltirdi. Qadimgi dunyo adabiyoti insoniyat tarixi, madaniyati va qadriyatlarini haqida bebaho ma’lumotlar beradi. Ulardan eng qadimiysi sifatida “Bilgamish” dostoni tilga olinadi. Ko‘pchilik bu asarni qadimgi Mesopotamiya madaniyatiga mansub deb bilsa-da, uning asl kelib chiqishi bo‘yicha ilmiy bahslar davom etmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar “Bilgamish” dostoni turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma yodgorligi bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu maqolada ushbu nazariyaga e’tibor qaratiladi.

1. Shumer Adabiyoti

Taqriban 5-6 ming yil muqaddam mavjud bo‘lgan Shumer sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng qadimiy yozma manbalarni yaratgan xalqlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ularning mixxat yozuvlarida nafaqat ijtimoiy hayot, qonunlar va diniy tasavvurlar aks ettirilgan, balki global miqyosdagi tabiiy ofatlar, jumladan, ulkan suv toshqin haqidagi hikoyalar ham shumer manbalarida bayon qilingan. Shumerlarning yozma yodgorliklarida insoniyat tarixidagi ilk kemani kim qurgani haqida batafsil ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, ular tomonidan yozib qoldirilgan eposlar, dostonlar, ballada va qo‘shiqlarning ayrimlari bugungi kungacha yetib kelgan. Ushbu bebaho merosning yorqin namunasiga “Bilgamish” dostoni misol bo‘la oladi. Bu asarda olam va insoniyatning yaratilishi, Tangrining qudrati haqida falsafiy va diniy fikrlar ilgari surilgan.

E’tiborga molik jihati shundaki, “Bilgamish” dostoni va muqaddas kitoblardagi diniy syujetlar, payg‘ambarlar tarixi haqidagi qissa va hikoyalar o‘rtasida ko‘plab o‘xshashliklar

* PhD., Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek Tili va Adabiyoti Universiteti, diyorbek.asadov@gmail.com

mavjud. Jumladan, Odamning yaratilishi, Qobil va Hobil, Nuh alayhissalom haqidagi rivoyatlar Shumer afsonalarida miflashgan ko‘rinishda tasvirlanadi. Shuningdek, qiyosiy-tipologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo xalqlarining eng mashhur eposlari “Bilgamish” dostoniga bog‘liq holda shakllangan. Masalan, hindlarning “Mahobhorata” va “Ramayana” eposlari yunonlarning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari, shuningdek, o‘zbek xalqining bebaho merosi sanalmish “Alpomish” dostoni syujeti, motivlari, ilohiyot bilan bog‘liqligi kabi jihatlar “Bilgamish” eposi bilan tipologik o‘xshashdir. Boshqacha aytganda, “Bilgamish” dostoni jahon adabiyotining tom ma’noda ildizlaridan biri bo‘lib, uning syujet va g‘oyaviy asoslari turli xalqlarning epik asarlarida o‘z aksini topgan. Bu hodisa shuni ko‘rsatadiki, insoniyat tarixidagi madaniy va adabiy meros bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, eng qadimgi sivilizatsiyalar tomonidan yaratilgan asarlar keyingi davr adabiyotlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmagan.

Qadimgi Shumer adabiyotining eng yuksak yodgorliklaridan biri bo‘lmish “Bilgamish” dostoni insoniyat tarixidagi eng qadimgi epik asarlardan biri sanaladi. Ushbu doston faqatgina qahramonlik yoki sarguzashtlar haqida emas, balki insonning hayot va o‘lim, abadiylik va o‘tkinchilik haqidagi chuqur falsafiy mushohadalarini aks ettirgan.

Dostonning bosh qahramoni Bilgamish – Uruk shahrining kuchli va dono hukmdori bo‘lib, o‘z do‘sti Enkidu bilan birga ko‘plab safarlarga yo‘l oladi, turli sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Sayohat davomida ular o‘lim, do‘stlik, adolat va hayotning ma’nosi kabi mavzularni boshdan kechiradi. Enkiduning vafoti esa Bilgamishni chuqur o‘ylantirib, uni abadiy hayot sirini izlashga undaydi. Biroq qahramon barcha harakatlariga qaramay, inson o‘limdan qochib qutula olmasligini anglaydi. Bu natija “inson hayoti o‘tkinchi, lekin uning qilgan ezgu amallari abadiy qoladi” degan dostonning asosiy falsafiy g‘oyasi, bosh konsepsiyasi ochib beradi. Asarning badiiy jihatlar ham e’tiborga molik. Doston metafora va timsollar bilan boyitilgan bo‘lib, har bir obraz insoniyat ruhiy tajribasining ma’lum bir jihatini aks ettiradi. Masalan, Enkidu tabiat va begunohlik ramzi bo‘lsa, Bilgamish inson aqli va bilimga intilishning timsolidir.

Jahon adabiyoti mutaxassislarining yozishicha: “Shumerlar sivilizatsiyasi topilganda, ular yashagan joylarda arxeologik qazishmalar olib borilar ekan, olimlar bu qadar katta xazinaga duch kelishini hatto tasavvur ham qilmagan edilar. Turli-tuman ro‘zg‘or buyumlari, ish va harbiy qurollar, g‘ishtlar va boshqa ko‘pdan-ko‘p osori atiqalar o‘sha davr kishilarining nafaqat turmush tarzidan, balki ulkan ma’naviy hayotidan ham xabar berib turar edi.” (Hamdamov va boshqalar, 2024: 21).

Shumer adabiyotiga oid yozma manbalar juda ko‘p bo‘lib, amerikalik tarixchi S. Kramerning ta’kidlashicha, badiiy asar bitilgan mixxatli taxtachalar soni 5000 dan ortiqni tashkil etadi. O‘zbek tadqiqotchisi Zoyir Ziyotovning fikricha, shumer adabiyoti ikki asosiy yo‘nalishga ajratiladi: biri bevosita shumer tilida yaratilgan asarlar bo‘lsa, ikkinchisi esa keyingi davrlarda shumer madaniyatiga bo‘lgan ehtirom sifatida yozilgan asarlardir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Nineviyadan topilgan “Bilgamish” dostoni ikkinchi guruhga mansub sanaladi. Shunga qaramay, dostonning ildizi shumer madaniyatiga borib taqalishi uning shumer adabiyotining ajralmas qismi sifatida qaralishiga asos bo‘la oladi.

“Jahon adabiyotining eng qadimiy durdonalaridan bo‘lmish “Bilgamish” dostoni yetuk asarlardan biridir. Yuksak badiiyati va insonparvarlik ruhi sababli bu asar qadim zamonlardayoq turli tillarga tarjima qilingan. “Bilgamish” dostonining turli variantlari, ayrim holda, qo‘shilgan va o‘zgartirilgan turlicha nusxalarning topilishi bu manbaga oid qadimgi vaqtlardayoq ilmiy-adabiy qarashlar, ilmiy-adabiy tadqiqotlar vujudga kelganligini bildiradi.” (Boltaboyev va boshqalar, 2013: 34).

Chexiyalik qadimshunos olim Yozef Klimaning aniqlashicha, doston dastlab olti qissadan iborat bo‘lgan. Biroq bizgacha yetib kelgan versiyada uning besh qismi saqlanib qolgan. Har bir qissa bir nechta qo‘shiqlardan tarkib topgan bo‘lib, dastlabki qissaning

dastlabki to‘qqiz qo‘shig‘ida Bilgamish obrazi hali maydonga chiqmaydi. Keyingi qissalarda esa “Bilgamish va jonli yer”, “Bilgamish va samoviy ho‘kiz” kabi voqealar tasvirlanadi. Shumer variantining so‘nggi qismi — “Bilgamish va Aga” esa akkad tilidagi nusxaga kiritilmagan. Dostonda tasvirlangan voqealar qadimgi Shumer e‘tiqodlari va mifologiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Unda bugungi dunyoni suv to‘foni bosishi, Shuruppak shahri hokimi Zi-Usudraning kema qurib, jonzoqlarning bir qismini qutqarishi ming yildan so‘ng nozil bo‘lgan Injilning Tavrot qismida bayon qilingan Nuh to‘foni haqidagi hikoyaga o‘xshashligi bilan e‘tiborni tortadi (Klima, 1967: 229-230). Shuningdek, qadimgi Shumerning poytaxti Nippur shahri vayronalari orasidan topilgan “To‘fon afsonasi” ham “Bilgamish” dostoni tarkibiga kiritilgan.

Dostonda Bilgamishning shoh Kish hukmdori Aga bilan olib borgan urushi, uni mag‘lub etishi va o‘z yurtiga qaytishi tasvirlangan. Shuningdek, qahramon do‘sti Enkiduning vafotidan so‘ng abadiy hayot sirini izlab uzoq safarga otlanadi. Bu sayohat chog‘ida u donishmand Utnapishtim bilan uchrashib, undan dunyoni qamrab olgan to‘fon haqidagi rivoyatni eshitadi. Ushbu voqealar tizimi asarning nafaqat epik, balki chuqur falsafiy mazmunini ham ochib beradi. “Dostonning bir qancha syujet chiziqlari mavjud. Uning birgina 11-bitigi syujet liniyasining o‘ziyoq bu sharq dostonining nechog‘li ahamiyatli ekanini, tarixiy, adabiy va estetik qiymatini, o‘rmini manaman deya ko‘rsatishga kifoya qiladi. “Bilgamish” dostonining Shumer va Bobil variantlari bor bo‘lib, ular bir-birlaridan syujet chiziqlari borasida farq qiladi.” (Hamdamov va boshqalar, 2024: 21)

Shumersunos olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, "Bilgamish" dostoni dastlab alohida-alohida mustaqil kichik dostonlardan iborat bo‘lgan. Keyinchalik ushbu hikoyalarning umumiy g‘oyaviy-mavzuviy uyg‘unligi asosida ular yagona epik asarga birlashtirilgan. Dostonning to‘liq shakllangan varianti qahramon Bilgamish va uning do‘sti Enkiduning sarguzashtlarini o‘z ichiga oladi. Asarda Bilgamish va Enkiduning Livan hududida joylashgan qadimiy kedr o‘rmonlariga sayohati tasvirlanadi. Ushbu safarning asosiy maqsadi Uruk shahrining qurilishi uchun zarur bo‘lgan yog‘och materiallarini olishdan iborat bo‘lgan. Ammo bu hududni dahshatli Xumbaba devining qo‘riqlashi sababli qahramonlar og‘ir sinovlarga duch kelishadi. Ularning jangida Quyosh tangrisi O‘tu (O‘ttu) yordam beradi va yakunda Bilgamish va Enkidu devni mag‘lub etib, uni o‘ldirishga muvaffaq bo‘ladilar. Ushbu epizod nafaqat qadimgi Shumer xalqining qahramonlik tushunchalarini, balki ularning diniy-falsafiy qarashlarini ham aks ettiradi.

Dostonning syujetida shumer xalqining urf-odatlarini, madaniyati va harbiy an‘analari yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, Kish shahrining bosqinchilariga qarshi Bilgamish va Enkiduning jangi turkiy xalqlar eposlariga xos qahramonlik motivlari bilan bog‘liq bo‘lganligi kuzatiladi. Ushbu sahnalarda emotsional va ritorik takrorlar, savol-javob shaklidagi dramatik usullar keng qo‘llanilgan. “Omochlarni qilichga almashtiramiz!” kabi shiorlar, shuningdek, “yovlarning qo‘rquvdan aqli adashdi, fikri to‘zidi, esankiradi” kabi ifodalar xalq og‘zaki ijodi unsurlarining epos tarkibiga singdirilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, qahramonlik eposining ijtimoiy tarkibiy tuzilishiga ko‘ra, "Bilgamish" dostoni va turkiy xalqlar dostonlari o‘rtasida muayyan o‘xshashliklar kuzatiladi. Masalan, “Alpomish” dostonida asosiy qahramon qabila va elat yetakchisi, harbiy sarkarda bo‘lsa, “Bilgamish” dostonida ham bosh qahramon yurt hokimi va ruhoniylar sifatida gavdalanadi. Bu esa eposlar rivojlanishida qahramonlik turkumi dostonlari va ijtimoiy ierarxiyaning o‘xshash jihatlari ochib beradi.

2. Shumerlar – Qadimgi Turkiy Xalqmi?

Shumerlarning etnik kelib chiqishi hozirgacha, afsuski, juda kam o‘rganilgan. G‘arb olimlari tomonidan shumerlarning tili hozirgi mavjud tillardan birortasiga bevosita bog‘lanmaydigan izolyatsion til deb qaraladi. Biroq, ayrim tadqiqotchilar shumer tili va turkiy

tillar orasida grammatik, leksik o'xshashliklar borligini ta'kidlab keladi. Masalan, turkiy tillardagi agglutinatív tuzilma (so'z yasash usuli) shumer tilida ham kuzatiladi.

Shumerlar yashagan yerlar qadimgi Mesopotamiya (hozirgi Iroq) hududiga to'g'ri keladi. Shumershunoslarning fikricha, Mesopotamiya shumerlarning asl yurti emas, ular Markaziy Osiyo, Habashiston, Eron, Kavkazorti kabi yurtlardan kelib yashab qolgan. (Oppenxeym, 1990: 26) I.M. Dyakonovning yozishicha, shumerlar ota yurti Eron tog'lari ortidagi O'rta Osiyodir. (Cyakonov, 1967: 35) Mashhur amerikalik shumershunos olim Samuel Kramerning bu to'g'risidagi fikri biroz o'zgacha va bahsli. Olimga ko'ra, Mesopotamiyaning shumerlargacha aholisi *ubaylar* bo'lib, ular yashagan manzil arab manbalarida *al-Ubayd* deb yuritilgan va shumerlar istilosidan keyin ular Hindistonga chekinishga majbur bo'lganlar. (Kramer, 1965: 37) Shumerlarning kelib chiqishi, vatani, qaysi xalq vakillari ekanligi haqidagi bunday turfa xil yondashuvlar shumershunoslikda ko'p uchraydi va bu borada olimlar hali bir to'xtamga kelishgani yo'q. Shumerlarning qadimgi turkiylar ekanligini dalillashga urinayotgan olimlar soni ko'p ham emas, kam ham emas. Ammo ularning keltirayotgan dalillari haqiqatga yaqin va ilmiy asosga ega. Shunday fikrlardan yana ayrimlarini keltiramiz. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqida olib borilgan tadqiqotlarda shumerlar bilan bog'liq jihatlar alohida e'tiborga loyiq. Toir Eftining "Shumerlar va etruslar – insoniyat tamadduni ibtidosidagi qadimiy turkiylar" nomli asarida bugungi kunda Markaziy Osiyoda yashayotgan o'zbek, qozoq, turkman va qirg'iz xalqlari, shuningdek, Kavkaz mintaqasidagi ozarbayjonlar hamda Turkiyada istiqomat qiluvchi turklar qadimgi shumerlar bilan umumiy ildizga ega ekani ilgari suriladi. (Efti, 2013: 160). Ushbu qarash turkiy qavmlarning madaniy va tarixiy shakllanish jarayonlarini yangi nuqtai nazardan o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, Zoir Ziyodovning "Shumerlar va Turon qavmlari" (Ziyodov, 2012: 456) asarida shumerlarning turkiy xalqlar bilan bog'liqligi haqidagi qarashlar ilgari suriladi. Ushbu yondashuvlar shumerlarning kelib chiqishi borasidagi turli taxminlarni yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi. Bunday qarashlarni nainki qo'llab quvvatlash, balki yanada rivojlantirish zarur.

"Bilgamish" dostoni (ayrim manbalarda buzib talqin qilingan holda "Gilgamesh" nomi ham uchraydi) – dunyodagi eng qadimgi qavm bo'lgan shumerlarning eposi sanaladi. Ushbu dostonida Uruk shahrining shohi Bilgamish va uning sarguzashtlari tasvirlanadi. Epos miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga mansub bo'lib, akkad, sumer, babil va ossuriya tillarida yozilgan versiyalari mavjud.

3. Bilgamish Nominig Turkiy Ildizlari

"Bilgamish" dostoni nomidanoq fonetik va semantik jihatdan turkiy ekanligi ayonlashadi:

"Bilga" – qadimgi turkiy tildagi "bilik" (bilim, ilm; aql) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "donishmand", "bilimli", "aql-zakovatli" degan ma'nolarni anglatadi. Masalan, turkiy xalqlarning tarixida "Bilga Xoqon" nomi mashhur bo'lib, u ham donishmand hukmdor degan ma'noni beradi.

"Mish" – turkiy tillardagi "emish" ma'nosida qo'llanadi. Masalan, "Alpomish", "Kuntug'mish", "O'zg'urmish" kabi qahramonlik nomlarida ham ushbu shakl mavjud. Demak, aytish mumkinki, Bilgamish so'zi sof turkiycha so'z bo'lib, *bilimli, aqilli emish* degan ma'noni bildiradi.

Bu fonetik va morfologik o'xshashliklar "Bilgamish" nominig turkiy ildizlarga ega ekanligidan darak beradi. Shumershunos olim Zoyir Ziyodov va "Bilgamish" dostoni tarjimoni Anvar Shukurovlar "Gilgamesh" nominig G'arb tilshunoslari tomonidan noto'g'ri talaffuz qilinishi natijasida o'zgargan, deb hisoblaydi va uning asl shakli "Bilgamish" ekanligini ta'kidlaydi. "Jahon xalqlari miflari" qomusi Belgamish tarixi xususida yanada aniqroq ma'lumot beradi: "Gilgamesh" akkadcha nom bo'lib, uning shumercha atalishi

*Bilgamish*dir. Bu *donishmand qahramon* degan ma'noni bildiradi (Boltaboyev va boshqalar, 2013: 28). Mashhur turk shumershunosi olimi Muazzez Ilmiye Chig' ham bu ism turkcha ekanligini ta'kidlaydi: "Bu ilm-fan tomonidan qabul qilingan haqiqat; *Gilgamesh* nomi aslida Shumer tomonidan *Gilgamesh* emas, *Bilgamish* yoziladi, *bilga* esa turkiy so'z. Bu turkcha ism" (Çığ, 2002).

Professor Uzoq Jo'raqulovning fikricha: "...qadim turkiylar tilida "bilig", "bilga" so'zlarining ma'nosi faqat bilim yoki bilimli tushunchalari bilan cheklanmaydi. Shumer eposidagi Bilgamish, toshbitiklarda keladigan Bilga Xoqon atoqli otlarining dastlabki shakli sifat emas, turdosh ot bo'lgan. Keyinchalik "bilga" deyilganda zamonasining ulug'i tushunilgan. Natijada turdosh ot atoqli otga aylangan. Hukmdorlik, xalq himoyasi, millatni birlashtirishdek ulkan vazifalar yuklatilgan bu shaxslarning bilga atalishi bejiz emas. Turkiy adabiyotining eng qadimgi davridan taqriban XIII-XIV asrlargacha bo'lgan og'zaki va yozma namunalarda "bilig", "bilga" so'zlari juda ko'p qo'llanadi." (Jo'raqulov va boshqalar, 2021: 105).

4. "Bilgamish" Dostoni va Turkiy Epik An'analar

Shumer madaniyatidagi ayrim ramzlar va mifologik unsurlar turkiy eposlarda ham uchraydi. Masalan, qahramonlik, alplik tizimi, abadiy hayot izlash, uch olam tasviri, ulug' hukmdor, raqib va do'st obrazlari kabi tushunchalar turkiy xalqlarning qadimiy asarlarida ham keng tarqalgan.

"Bilgamish" dostoni turkiy eposlarga xos bo'lgan quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Dostondagi qahramonlik va jasorat motivlarining yetakchiligi. Ya'ni, Bilgamish, avvalo, o'zining zidi, raqibi sifatida paydo bo'lgan Enkidu bilan mardonavor jang qiladi. Keyinchalik Enkidu bilan Bilgamish qattiq do'stlashadi. Bunday do'stlashuv motivi Alpomish va Qorajon sarguzashtlariga tipologik jihatdan o'xshaydi.

Samoviy kuchlar va insonlar o'rtasidagi munosabatlar tasviri. "Bilgamish" dostoni samoviy kuchlar va inson orasidagi kurash tasvirlanadi. Bu motiv turkiy eposlarning deyarli barchasida, jumladan, "O'g'uznoma", "Dada Qo'rqud", "Alpomish", "Kuntug'mish" kabi dostonlarda ham uchraydi.

Safar, sinov va tutqunlik motivlari. Bilgamish do'stining vafotidan qattiq ta'sirlanib, adabiy hayotga erishish maqsadida umrboqiy yashash imkoniga ega bo'lgan O'tnapishtimni huzuri yo'lga chiqadi. Safar davomida sinovlar va tutqunliklarni boshidan kechiradi. Bilgamish o'lmaslik sirini topish uchun uzoq yo'l bosishi turkiy epik an'analardagi "oq yo'l izlash" g'oyasi bilan uyg'un tushadi. Umuman, bunday motivlar barcha turkiy eposlar syujetining ajralmas tarkibiy qismidir.

Xulosa

Shumer adabiyoti insoniyat tarixidagi eng qadimiy yozma yodgorliklardan biri bo'lib, uning eng mashhur namunasi – "Bilgamish" dostoni hayot va o'lim, insoniylik, abadiylik kabi mavzularni qamrab oladi. Ushbu doston va boshqa Shumer matnlari nafaqat o'z davrida, balki keyingi madaniyat va adabiyotlarga ham katta ta'sir ko'rsatgan. "Bilgamish" dostoni nainki, qadimgi Shumer adabiyotining durdonasi, balki butun insoniyat tafakkurining ulkan yutug'idir.

Shumerlarning kelib chiqishi va ularning tili haqida turli nazariyalar mavjud bo'lsa-da, aksariyat olimlar ularni qadimgi turkiy xalqlar bilan bog'laydi. Arxeologik va lingvistik tadqiqotlar shumerlar va turkiy xalqlar o'rtasidagi o'xshashliklarni ko'rsatadi, bu esa mazkur masalani yanada chuqur o'rganishni talab qiladi. Shumer merosi, ayniqsa "Bilgamish" dostoni, bugungi kunda ham jahon madaniyati va ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

"Bilgamish" dostonining turkiy xalqlarga aloqadorligi haqidagi ilmiy dalillar to'liq tan olinmagan bo'lsa-da, fonetik, semantik, til xususiyatlari, madaniy o'xshashlik va an'anaviy

motiv hamda obrazlar uning turkiy ekanligini dalillaydi. Shumerlarning etnik kelib chiqishi bo'yicha tadqiqotlar davom etayotganligi sababli, kelajakda bu borada yangi ilmiy yangiliklar bo'lishi tabiiy. Agar "Bilgamish" dostoni haqiqatan ham turkiy eposlarning eng qadimgisi ekani ilmiy jamoatchik tomonidan to'liq tan olinsa, bu nainki turkiy xalqlarning, balki jahon madaniy merosining ham yangicha talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Lekin afsuski G'arb mamlakatlari bu buyuk haqiqatni tan olishi oson kechmaydi.

ADABIYOTLAR

- Boltaboyev, Hamidulla va Mahkam Mahmudov (2013), *Adabiy-estetik tafakkur tarixi*, Toshkent: Mumtoz so'z.
- Cyakonov, Igor Mixaylovich (1967), *Yaziki drevney peredney Azii*, Moskva: Nauka.
- Çığ, Muazzez İlmiye (2008), *Sümerlilerde Tufan – Tufan'da Türkler*, Kaynak Yayınları.
- Efti, Toir (2013), *Shumersi i etruski – drevnie turki u istokov chelovecheskoy sivilizatsii*, Toshkent: Niso poligraf.
- Hamdamov, Ulug'bek va Abdug'opir Qosimov (2024), *Jahon adabiyoti*, Toshkent: Akademnashr.
- Jo'raqulov, Uzoq va Komiljon Hamroyev (2021), *Qiyosiy adabiyotshunoslik*, Toshkent: Lesson Press.
- Klima, Yozef (1967), *Obshestvo i kultura drevnogo Dvurechya*, Praga: Akademya.
- Kramer, Samuel (1965), *Istoriya nachinayetsya v Shumere*, Moskva: Nauka.
- Oppenxeym, Adolf Leo (1990), *Drevnyaya Mesopotamiya*, Moskva: Nauka.
- Ziyodov, Zoyir (2012), *Shumerlar va turon qavmlari*, Toshkent: Mumtoz so'z.
- <https://tarikhvearkeoloji.blogspot.com/2014/07/gilgamesh-bilgamesh-gilgamis-bilgemis.html>